



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BADIY MATNLAR ORQALI ILMIY TAFAKKUR VA AXLOQIY TARBIYANI INTEGRATSIYALASH

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19434889>

ARTICLE INFO

Received: 21st March 2026

Accepted: 25th March 2026

Published: 30th March 2026

KEYWORDS

badiiy matnlar, axloqiy tarbiya, ilmiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, ertaklar, fazilatlar, tarbiyaviy ta'sir, sabab-oqibat munosabatlari, tafakkur ko'nikmalari.

ABSTRACT

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy matnlar orqali ilmiy tafakkur va axloqiy tarbiya bilan integratsiyalash jarayonini tahlil qiladi. Badiiy matnlarning pedagogik salohiyati, qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish va sabab-oqibat munosabatlarini anglash orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, darslarda topshiriqlar orqali tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi keltirilgan. Maqola boshlang'ich ta'limda badiiy matnlar nafaqat estetik didni, balki ilmiy va axloqiy tafakkurni mustahkamlash vositasi ekanini ta'kidlaydi.

Bilamizki boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim burilish davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'quvchining tafakkur jarayonlari, tasavvuri, nutqiy faolligi va ma'naviy qarashlari shakllanib borishi ham barchamizga ma'lum. Bunday murakkab psixologik jarayonda o'quvchining ongiga, ilmiy tafakkuriga ta'limning mazmuniy asoslarini belgilovchi badiiy matnlar o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Shu ma'noda badiiy matnlar ta'lim jarayonida nafaqat estetik didni shakllantiruvchi vosita, balki ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik resurs sifatida ham namoyon bo'ladi. Adabiy asarlar orqali o'quvchilar voqea-hodisalarni ketma-ketlikda idrok etish, qahramonlar harakati sabablarini tahlil qilish va ularning oqibatlarini baholash ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ilmiy tafakkur uchun xos bo'lgan tahliliy yondashuv, mantiqiy fikrlash va umumlashtirish ko'nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Badiiy matnlarda ifodalangan hayotiy vaziyatlar, ramziy obrazlar va axloqiy tanlovlar o'quvchini muammo qo'yish va uni hal etish jarayoniga ongli ravishda olib kiradi. O'quvchi qahramonlar xatti-harakatlarini solishtirish, baholash va muayyan xulosalar chiqarish orqali voqelikni faqat hissiy emas, balki intellektual jihatdan ham anglay boshlaydi. Natijada badiiy tafakkur bilan ilmiy tafakkur o'rtasida uzviy bog'liqlik yuzaga kelib, o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi chuqurlashadi.

Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida badiiy matnlar orqali olib boriladigan ishlar o'quvchilarda sabab-natija munosabatlarini anglash, xulosaviy fikrlash va mustaqil mulohaza yuritish malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Badiiy asarning estetik jozibasi va

obrazli tili o'quvchining e'tiborini jalb qilgan holda, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda ongiga singdiradi. Shu tariqa, badiiy matnlar ta'lim mazmunini boyitibgina qolmay, ilmiy tafakkurning poydevorini mustahkamlovchi samarali vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tafakkur o'zi nima? "Ilmiy tafakkur" tushunchasini ilmiy tahlil qilish, avvalo "Tafakkur" tushunchasini tahlil qilishni taqazo etadi.

Tafakkur so'zi arabcha "*fikr*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi. Inson borki, u fikr yuritish qobiliyatiga ega. Bilish faoliyati avvalo sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyinchalik tafakkurga o'tadi. Biroq har qanday tafakkur, hatto eng rivojlangan tafakkur ham, hamisha hissiy bilish — ya'ni sezgi, idrok va tasavvurlar bilan bog'liq bo'ladi. Tafakkur faoliyati o'zining butun materialini faqat bitta manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgi va idrok jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning to'g'riligi amaliy faoliyat orqali tabiat va jamiyatni o'zgartirish jarayonida uzluksiz tekshirib boriladi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi hamda ularning chegaralaridan tashqariga chiqadi.¹

Ilmiy tafakkur – olamni, hodisalarni va jarayonlarni tizimli, mantiqiy va dalillarga tayangan holda chuqur o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan tafakkurning maxsus shakli hisoblanadi. Ilmiy tafakkurda tajriba, kuzatuv va nazariy asoslar orqali bilim hosil qilinadi va ilmiy tafakkur yangi bilimlarni yaratishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich maktab davri – bu bolada insoniy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va ijtimoiy xatti-harakatlar asoslarini shakllantiruvchi poydevor bosqichidir. Bilamizki bu davrda bolalar ko'proq his qilish, taqlid qilish va o'zaro ta'sir orqali o'rganadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayonda **badiiy adabiyotlar**, ayniqsa ertak, hikoya, doston va she'riy asarlarning tarbiyaviy potensialidan oqilona foydalanish ta'limning samaradorligini keskin oshiradi. Boshlang'ich ta'limda faqat bilim berish emas, balki bolaning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy ko'nikmalari, hissiy tafakkuri, axloqiy dunyoqarashi va kommunikativ layoqatini rivojlantirish asosiy maqsadlar hisoblanadi. Zero, badiiy matnlar o'quvchining tasavvurini kengaytiradi, his-tuyg'ularini uyg'otadi, axloqiy tanlovlar qilishga undaydi va ruhiy dunyosini boyitadi. Bu esa bolaning mustaqil fikrlashi, oqibatni oldindan tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda badiiy adabiyot, ayniqsa ertak, hikoya va doston kabi janrlarning ta'siri yuqorida ta'kidlaganimizdek beqiyosdir.²

Bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlar nafaqat o'qish ko'nikmasini shakllantirish, balki bolada axloqiy, tarbiyaviy tushunchalarni ongli ravishda anglashni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, bu darslar orqali o'quvchilarda halollik, insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish maqsadida metodik yondashuvlar tizimli va bosqichma-bosqich qo'llanishi lozim.³

Axloqiy tarbiyaga bir nechta ta'riflar mavjud bo'lib, ularning barchasi insonning ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Masalan: "Axloqiy tarbiya – bu shaxsning ichki axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy mas'uliyatini va ijobiy xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni" (M. Z. Hafizi & H. Wiyono, 2025), yoki "Axloqiy tarbiya – bu shaxsning xulq-atvori, axloqiy madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir" (D. B. Ikromova, 2023). Shuningdek, "Axloqiy tarbiya o'quvchida odob-axloq normalarini qabul qilish, axloqiy qarorlar qabul qila olish va jamiyatga foydali, mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishish

¹ Jo'rayev X. **Tafakkur** // *TAFAKKUR* ilmiy jurnali. — 2024. — 2-jild, 11-son. — 47-bet. — ISSN (E): 2992-9148. — SJIF: 5.333. — ResearchBib Impact Factor: 9.576.

² Muqimjonova, N. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishda badiiy matnlardan foydalanishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 15, 79–81.

³ Muqimjonova, N. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishda badiiy matnlardan foydalanishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 15, 79–81.

ko'nikmalarini shakllantiradi" (M. Z. Hafizi & H. Wiyono, 2025) ta'kidlashicha, axloqiy tarbiya nafaqat nazariy bilim berish, balki ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini amaliy shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu tariqa, axloqiy tarbiya o'quvchilarda empatiya, hurmat, mas'uliyat va adolat kabi fazilatlarini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf darslarida badiiy matnlarni o'qish jarayoni nafaqat o'quvchilarning til va tafakkur ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni axloqiy tarbiya bilan ham bog'laydi. Masalan, o'quvchilarga bir hikoya o'qitiladi, so'ngra qahramonning xatti-harakatlari tahlil qilinadi: "Nega shunday qildi?", "Agar boshqacha harakat qilganida natija qanday bo'lardi?" kabi savollar orqali o'quvchilar sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rgatiladi. Shu jarayonda ular ilmiy tafakkur - tahlil qilish, izohlash va sabab-oqibatni aniqlash ko'nikmalarini egallaydi, bir vaqtning o'zida axloqiy tarbiya elementlari qahramonning xulqini baholash, to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatni farqlash, ijobiy fazilatlarini qadrlash ham shakllanadi.

O'quvchilarning tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlash uchun darsda turli topshiriqlar berish samarali bo'ladi. Misollar:

- "Qahramon qarorini o'zgartirsak, voqea qanday o'zgarardi?" - bu topshiriq o'quvchilarda tahliliy fikrlash va sabab-oqibat zanjirini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- "Hikoyadagi voqealarni jadvalga joylashtir" - voqea ketma-ketligini tartibga solish, izchillik va mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.
- "Sabab-oqibat zanjiri tuz" - o'quvchilarga voqealar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va o'z fikrini tizimli ifodalash imkonini beradi.

Shu tarzda, badiiy matnlar orqali ilmiy tafakkur va axloqiy tarbiya integratsiyalashadi, o'quvchilar nafaqat hikoyani tushunadi, balki undagi ijtimoiy va axloqiy me'yorlarni ham amaliy ravishda o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'lim bosqichida badiiy matnlar orqali ilmiy tafakkur va axloqiy tarbiyani integratsiyalash o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini samarali ta'minlaydi. Hikoya va ertaklar yordamida qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muammoni hal qilish va xulosalar chiqarish jarayonlari o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Topshiriqlar orqali voqealarni tartibga solish, sabab-oqibat zanjirini tuzish va qarorlar natijasini baholash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shu tariqa, badiiy matnlar nafaqat estetik va madaniy didni rivojlantiradi, balki ilmiy tafakkur va axloqiy tarbiyaning uzviy integratsiyalashgan pedagogik vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'rayev X. Tafakkur // TAFAKKUR ilmiy jurnali. — 2024. — 2-jild, 11-son. — 47-bet. — ISSN (E): 2992-9148. — SJIF: 5.333. — ResearchBib Impact Factor: 9.576.
2. Muqimjonova, N. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishda badiiy matnlardan foydalanishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 15, 79–81.
3. Muqimjonova, N. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishda badiiy matnlardan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari. Образование, Наука и Инновационные Идеи в Мире 74(1), 260–270.
4. Hafizi, M. Z., & Wiyono, H. (2025). Axloqiy tarbiya — bu shaxsning ichki axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy mas'uliyatini va ijobiy xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni.
5. Ikromova, D. B. (2023). Axloqiy tarbiya — bu shaxsning xulq-atvori, axloqiy madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.